

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

3-son (5-jild)
2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrda 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Mansurov Ulug'bek Umarovich</i> FARG'ONA VODIYSI SHAHARLARIDA TIBBIYOT TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR (1917-1990-YILLAR)	12-20
<i>Yuldashev Ulugbek Kadirjanovich</i> O'ZBEKISTONDA PROFESSIONAL TA'LIM BOSQICHIDA DUAL TA'LIM SHAKLINING JORIY QILINISHI TARIXI	21-27
<i>Bobobekova Nargiza Ismatullayeva</i> JIZZAX VILOYATI SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMI FAOLIYATI TARIXI (XIX ASR IKKINCHI YARMI - XX ASR BOSHLARI)	28-33
<i>Esanova Nilufar</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONNING YENGIL SANOAT SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR BILAN HAMKORLIGI	34-37
<i>Tursunov Bekzot Yandashevich</i> QO'QON XONLIGI QO'SHININING QUROL-ASLAHALARIGA OID	38-45
<i>Давлетмуратов Куралбай Хожамуратович</i> АНТИЧНЫЕ И СРЕДНЕВЕКОВЫЕ ЗООМОРФНЫЕ МЕТАЛЛИЧЕСКИЕ ИЗДЕЛИЯ ХОРЕЗМА	46-52
<i>Raximov Bektosh, Tashmuradov Umidbek</i> AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA TASHQI DIPLOMATIK ALOQALARNING DAVLAT SIYOSIY TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI	53-57
<i>Otaxanov Alisher Mamadaliyevich</i> TEMURIY MALIKALARNING ILM-FAN VA IJTIMOIIY TARAQQIYOTGA QO'SHGAN HISSALAR	58-64
<i>Xakimov Ravshan Raimovich</i> MIRZACHO'LNING ETNOEKOLOGIK MUAMMOLARI	65-74
<i>Ergashev Jahongir Yunus o'g'li</i> TURK XOQONLIGINING BOSHQARUVIDA IMPERIYACHILIK XUSUSIYATLARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI	75-82

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Gabriel Ayodeji Ogunmola</i> ЦИФРОВОЙ ДИВИДЕНД: ИЗУЧЕНИЕ ПОТЕНЦИАЛА ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	83-96
<i>Abdullayev Altinbek Yangibayevich</i> KORXONANING KOMPLEKS ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARI VA QO'SHIMCHA MAHSULOT ISHLAB CHIQUARISH HISOBINI YURITISHNING USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH	97-113
<i>Komolov Odiljon Sayfidinovich</i> KREDIT TASHKILOTLARINI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINING TAHLILI	114-123

<i>Shaislamova Nargiza Kabilovna</i> MAMLUKAT IQTISODIYOTI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING ROLI	124-134
<i>Qo'chqarov Baxtiyor Xoshimjanovich</i> KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING AYLANMA MABLAG'LARINI SHAKLLANTIRISH VA UNDAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI	135-147
<i>Abdimurodov Baxrom, Abdimurodov Bahodir</i> AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA XODIMLARGA HAQ TO'LANADIGAN HAR YILGI MEHNAT TA'TILINI RASMIYLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH	148-152
<i>Matkarimov Inomjon, Yuldashbayev Azizullo</i> BARQAROR RIVOJLANISH VA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH	153-158
<i>Исламмутидинова Дина Файзрахмановна</i> ТРАНСФОРМАЦИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ КОНЕВОДСТВА В УСЛОВИЯХ СОВРЕМЕННОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАНИ	159-166
<i>Ravshanov Zaxiriddin Ibragimovich</i> OVQATLANISH XIZMATLARI SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINI RIVOJLANTIRISH BORASIDA TAVSIYALAR	167-176
<i>Джуманиязов Уббинияз Исмайл улы</i> ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ КИТАЯ	177-183
<i>To'lov Ulug'bek Toshmamatovich</i> YERLARNI BAHOLASH VA SOLIQQA TORTISHNING METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH	184-193
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Xolmirzaev Xurshid Nakibillaevich,</i> IJTIMOIY-KASBIY FAOLIYAT JARAYONIDA SUN'IY INTELLEKTNING INSON SALOHİYATIGA TA'SIRI	194-200
<i>Tashanov Abduxoliq</i> QADIMGI SHARQ MANBALARIDA INSON BUZG'UNCHILIGI HAQIDAGI QARASHLAR ...	201-206
<i>Muhamedov Asror Asadovich</i> UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI YARATISHDA YUSUF XOS HOJIB FALSAFIY MEROSIDAN FOYDALANISH	207-213
<i>Жумаева Шахло Суюновна</i> ВОПРОС НРАВСТВЕННОГО СОВЕРШЕНСТВА В УЧЕНИИ АХМАДА ЯССАВИ	214-219
<i>Eshonqulov Laziz Norqobul o'g'li</i> HAJVIYLIKNING PSIXOLOGIK IJTIMOIY-MADANIY VA ESTETIK XUSUSIYATI	220-224
<i>G'ulomov Zuxriddin Baxromjon o'g'li</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA YOLG'ON AXABOROTLARNING MAZMUN-MOHİYATI VA KONSEPTUAL ASOSLARI	225-231
<i>Xaitov Lazizbek Azamatovich</i> HAKIM TERMIZIYNING FALSAFIY TA'LIMOTI	232-236

<i>Ortiqov Shahriddin</i> SHAXS ESTETIK ONGI VA MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA TEATR SAN'ATINING O'RNI	237-241
<i>Toshiboeva Munavar</i> IJTIMOIY-MA'NAVIY MUHIT BARQARORLIGIDA XOTIN-QIZLARNING ISHTIROKI	242-248
<i>Murotov Elyor Narzillo o'g'li</i> YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYALARINING UZVIYLIGI VA FALSAFIY TAHLILI	249-255
<i>Soipova Mavjuda Karimjanovna</i> FAZL IBN AHMAD TA'LIMOTIDA NUR VA HARAKAT MASALASI	256-260
<i>Ashurova Xurshida Sag'dullaevna</i> HOJI MUIN ZAMONDOSHI SHOKIR MUXTORINING HAYOTI VA FAOLIYATI HAQIDAGI QARASHLARI	261-264
<i>Karimov Anvarjon Lutfilloyevich</i> IBN SINO FALSAFIY MEROSIDA AXLOQI MASALASI	265-269
<i>Shakambarov Abdurashid Abdujabbarovich</i> MA'NAVIY MARGINALLASHUV DAN HIMOYALANISHDA XORIY TAJRIBASI	270-275
<i>Samadov Jonmurod</i> JALOLIDDIN RUMIY GNOSEOLOGIASINING ZAMONAVIY TAHLILI	276-280
<i>Barnoev Sanjar Qurbonovich</i> YUSUF HAMADONIYNING INSON VA KOINOT UYG'UNLIGIGA OID TA'LIMOTIDA ME'YOR MASALALARI	281-286
<i>Ярлакабов Джамшид Мамасултонович</i> СВОБОДА И НЕОБХОДИМОСТЬ КАК ВЕКТОРЫ РАЗВИТИЯ ГЛОБАЛЬНОГО ОБЩЕСТВА: РЕАЛИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ	287-291
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Isanova Feruza Tulqinovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKLARNING SINXRON TAHLILI	292-297
<i>Xayrullayeva Shahzoda Farhod qizi</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SALBIY VA IJOBIY HIS TUYG'ULARNI LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI	298-303
<i>Tadjiyeva Mastura, Umarxonova Dilafruz</i> INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARIDA "BOYLIK" VA "FAQIRLIK" KONSEPTLARINING AKSIOLINGVISTIK TAHLILI	304-308
<i>Sharipova Nilufar Shaxrillo qizi</i> ZAMONAVIY DUNYO ADABIYOTIDA XALQ KULGISI ASOSIDA KELIB CHIQQAN YANGI BADIY SHAKLLAR	309-312
<i>Ochilova Gulnoza Farxod qizi</i> NUTQ BIRLIKLARI MASALASINING UMUMIY TILSHUNOSLIKDAGI TALQINI	313-316
<i>Alqarov Nazarbek Alisher o'g'li</i> IT MOTIVINING DUNYO VA O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA O'RGANILISHI	317-322

<i>Abdusalomov Firuz Abduxoliqovich</i> HARBIY DISKURSDA BUYRUQNING VOQELANISHI	323-329
<i>Ruzmatova Gulnara Kulmamatovna</i> STYLISTIC AND LINGUACULTUROLOGICAL FEATURES OF IMPLICATURES IN ENGLISH AND UZBEK ANECDOTES	330-333
<i>Safarova Farida, Toshkulova Madinabonu</i> THE STUDY OF TEXT LINGUISTIC	334-337
<i>Amonova Dilshoda Azamat qizi</i> ADABIYOTDA BADIY OBRAZ TUSHUNCHASI VA UNING XUSUSIYATLARI (DEN BRAUNNING "DA VINCHI SIRI" ROMANI MISOLIDA)	338-343
<i>Sultonova Gulchehra Xusanovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILI NAMUNASI SIFATIDA AFORIZMLARNING MADANIY VA FALSAFIY JIHATLARI	344-348
<i>Makhmudova Mutabar Dustmukhammad kizi,</i> CAUSES OF STEREOTYPE OCCURRENCE	349-353
<i>Sadullaeva Matlyuba Akhrorovna,</i> NUMERIC MYSTERIES: THE ROLE OF NUMBERS AND SYMBOLISM IN "THE DA VINCI CODE"	354-359
<i>Khusenova Shosura Toshtemirovna,</i> DOCTORS' ATTITUDES TOWARD LEARNING ENGLISH: A NEEDS ANALYSIS REPORT	360-363
<i>Mamajanova G'uncha, Shakirova Saida</i> EKVIVALENTLIK VA TAFOVUT MEZONLARI ASOSIDA O'ZBEK VA INGLIZ METAFORALARINING QIYOSIY TAHLILI	364-368
<i>Saydullayeva Dilrabo Ilxom qizi</i> SODIQIY AFSHORNING "MAJMA UL-HAVAS" TAZKIRASI VA UNING O'ZBEK TAZKIRASHUNOSLIGIDAGI AHAMIYATI	369-372

12.00.00 - YURIDIK FANLAR

<i>Нурпеисов Еркеш, Ибраева Алуа, Сманова Акмарал</i> КОНСТИТУЦИОННОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ТРИАДЫ В ИСТОРИЧЕСКОМ ВЫБОРЕ КАЗАХСТАНА	373-379
<i>Камалов Мансурхон Мухтарович</i> К ВОПРОСУ О КОНФЛИКТЕ ИНТЕРЕСОВ В КОРПОРАТИВНЫХ ОТНОШЕНИЯХ	380-385
<i>Komilov Avazbek Bokijonovich</i> QONUN BUZILISHI, UNING KELIB CHIQISH SABABLARI VA BUNGA IMKONIYAT YARATIB BERAYOTGAN SHART-SHAROITLARNI BARTARAF ETISH TO'G'RISIDAGI PROKUROR TAQDIMNOMASINING MAZMUNI VA UNGA QO'YILGAN TALABLAR	386-394
<i>Xolov Utkir Shomurodovich,</i> QONUNYIY KUCHGA KIRGAN SUD HUJJATLARINI YANGI OCHILGAN HOLATLAR BO'YICHA QAYTA KO'RISHNING AYRIM MASALALARI	395-399
<i>Kuldoshev Ulug'bek Otabek o'g'li</i> KASB YUZASIDAN O'Z VAZIFALARINI LOZIM DARAJADA BAJARMASLIK VA XAVF OSTIDA QOLDIRISH JINOYATLARINING SUBYEKTI VA ULARNING FARQLI JIHATLARI	400-407

<i>Ибрагимова Сабина Эркиновна</i> К ВОПРОСУ О ДАЛЬНЕЙШЕЙ ИМПЛЕМЕНТАЦИИ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ ПРАВОСУДИЯ НА ДОСУДЕБНОЙ СТАДИИ, В УГОЛОВНО- ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВО РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	408-413
<i>Avezov Dilshod Sadulayevich</i> MAHALLIY KENGASH DEPUTATINI CHAQIRIB OLISH MASALALARI VA UNING XUSUSIYATLARI	414-418
<i>Haydarov Jaloliddin Hamza o'g'li</i> VALYUTA QIMMATLIKLARINI QONUNGA XILOF RAVISHDA OLISH YOKI O'TKAZISH JINOYATINING PREDMETI TAHLILI	419-423
<i>Zairov Asadbek Sayfullo o'g'li</i> INKLYUZIV TA'LIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA QONUNCHILIK BAZASINING ROLI	424-432
<i>Karimov Bekmurodjon Anvarjonovich</i> BMT INSON HUQUQLARI BO'YICHA SHARTNOMAVIY ORGANLARI TIZIMINI KUCHAYTIRISH	433-442
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> ZAMONAVIY OLIY TA'LIMDA KREATIVLIKNI TASHXISLASH METODIKALARINI QO'LLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	443-449
<i>Raxmatov Otabek Urinbosarovich</i> "JISMONIY TARBIYA VA SPORT PEDAGOGIKASI" FANINING BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA VA SPORT FAOLIYATI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDAGI AHAMIYATI	450-455
<i>Xamroyev Samijon Salimovich</i> SPORT TO'GARAGI MAHG'ULOTLARIGA TALABALAR QIZIQISHLARINI SHAKLLANTIRISHDA UZLUKSIZLIKNI TA'MINLASH VOSITALARI	456-461
<i>Berdiyeva Nilufar Ibodullayevna</i> TALABALARDA INSHONING MAZMUNIIY- MANTIQUIY BAYON QILINISHIGA DOIR BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARNI SHAKLLANTIRISH	462-467
<i>Ortiqov Bekruh Baxodir o'g'li</i> ZAMONAVIY VOLEYBOLCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGI VA BIOMEXANIK XUSUSIYATLARI HAMDA SAMARADORLIKKA TA'SIRI	468-472
<i>Jumayeva Xulkarxon Muxammadjonovna</i> TALABALARNI INVARIANTIV VA VARIATIV TAHDIDLARDAN HIMOYALASHNING PEDAGOGIK STRATEGIYASI	473-480
<i>Avliyaqulov Tolib Xolmurodovich,</i> TALABALAR KASBIY-AXLOQIY TAYYORGARLIGIGA QADRIYATLARGA ASOSLANGAN YONDASHUV	481-486
<i>O'tashev Xasan Nematullayevich</i> OLIIY TA'LIM MUASSASASIDA SPORT ISHLARINING USTUVOR VAZIFASI SIFATIDA SPORT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM JIHATLARI	487-492
<i>Axmadjanov Doniyor Baxtiyor o'g'li</i> BO'LAJAK TARIX O'QITUVCHISINING AXLOQIY YETAKCHILIGI VA KASBIY FAZILATLARI	493-500

<i>Mengliyev Bobur Normamatovich</i> O'QITUVCHILARNI PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI TAHLIL QILISH USULLARI	501-507
<i>Gafforov Alisher Xolmurodovich</i> PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARI RAQAMLI TA'LIM RESURLARINI LOYIHALASH, TIZIMLASHTIRISH VA UNING MAZMUNI	508-518
<i>Qurbonova Bonu Quvondiq qizi</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI KITOBGA QIZIQTIRISH: SAMARALI USULLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	519-524
<i>Zubaydullayev O'ktam Raim o'g'li</i> O'QUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA SAN'ATNING O'RNI	525-529
<i>Raximov Nurillo Narzullaevish</i> BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHISINI KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH: MUAMMO VA YECHIMLAR	530-538
<i>Ergashova Munisa Hoshim qizi</i> MUSTAQIL TA'LIMNI O'YINLAR ORQALI TASHKIL ETISH	539-543
<i>Nuriddinova Madina, Nuriddinov Muhriddin</i> USING WIKI-TECHNOLOGY TO IMPROVE STUDENTS' WRITING COMPETENCE	544-552
<i>Kalekeeva Sarbinaz Turkmenbaevna,</i> O'QUVCHILARNING MANTIQUIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	553-560
<i>Nasriddinova Hulkar Komiljonovna,</i> RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BOSHLANG'ICH SINFLAR MATEMATIKA TA'LIMIDA QO'LLANILISHI IMKONIYATLARI	561-565
<i>Evatov Saminjon Sobirovich</i> JAMOAVIY FAOLIYATNI TASHKEL ETISH ASOSIDA O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH	566-572
<i>Samatova Shohsanam Xolmuhammad qizi</i> BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOGNITIV YONDASHUV ASOSIDA TIZIMLI FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH TAMOIYILLARI	573-577
<i>Idrisov Mironshoh Ilyos o'g'li</i> TALABALARNI JISMONIY TARBIYA, SPORT VA TURIZM VOSITALARI BILAN SOG'LOMLASHTIRISH TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI	578-582
<i>Nasriddinova Nilufar Shuxrat qizi</i> 1-SINF ONA TILI DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING INTENSIVLIGINI TA'MINLASH METODIKASI	583-587
<i>Yavkochdiyeva Dilafruz</i> TALABALARNI PEDAGOGIK KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA "STAATE" INNOVATSION TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH	588-593

Received: 16 February 2025

Accepted: 5 March 2025

Published: 20 March 2025

Article / Original Paper

HISTORY OF THE IMPLEMENTATION OF THE FORM OF DUAL EDUCATION AT THE LEVEL OF VOCATIONAL EDUCATION IN UZBEKISTAN

Yuldashev Ulugbek Kadirjanovich,

University of Business and Science

Teacher of the Department of Social Sciences

Abstract. The article analyzes the reforms of the professional education stage, one of the most important changes implemented in the field of education in Uzbekistan after 2017. The history of the introduction of the dual education form, which is one of the most important achievements of the foreign experience at the stage of professional education, was analyzed on the basis of official and archival documents, periodical press materials.

Keywords: professional education, dual education, vocational schools, colleges, technical schools, German experience.

O'ZBEKISTONDA PROFESSIONAL TA'LIM BOSQICHIDA DUAL TA'LIM SHAKLINING JORIY QILINISHI TARIXI

Yuldashev Ulugbek Kadirjanovich

University of Business and Science

Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

E-mail: ulugbekiuldashev08@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonda ta'lim sohasida 2017-yildan keyingi davrda amalga oshirilgan eng muhim o'zgarishlardan biri bo'lgan professional ta'lim bosqichi islohotlari tahlil qilingan. Professional ta'lim bosqichida xorijiy tajribaning eng muhim yutuqlaridan biri bo'lgan dual ta'lim shaklining joriy etilishi tarixi rasmiy va arxiv hujjatlari, davriy matbuot materiallari asosida tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: professional ta'lim, dual ta'lim, kasb-hunar maktablari, kollejlari, texnikumlar, Germaniya tajribasi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I3Y2025N02>

Kirish. Ta'lim har qanday taraqqiyotning mezonidir. Ta'limdagi muvaffaqiyat jamiyatning barcha jabhalaridagi muvaffaqiyatning garovidir. Bu o'rinda uzluksiz ta'limning barcha bosqichlarida ta'limning sifatli tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda ham yangi taraqqiyot davrida uzluksiz ta'limning barcha bosqichlaridagi islohotlarga birdek e'tibor qaratilmoqda. Ushbu islohotlarning asosiy mazmuni xalqaro standartlar talablariga javob beradigan ta'lim tizimini yaratishdan iborat. Buning uchun xalqaro tajribani o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Yangi O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar ta'limni zamonaviylashtirish va xalqaro tajribaning muhim yutuqlarini joriy etishga qaratilgan. Uzluksiz ta'limning barcha bosqichlarida bo'lgani kabi professional ta'limda joriy qilingan o'zgarishlar ham xalqaro standartlar asosida ishlab chiqarish tarmoqlari uchun malakali mutaxassislarni ta'minlashga qaratilgan. O'zbekiston yaqin o'tmishida sodir bo'lgan ushbu islohotlar va

ularning natijalarini tahlil etish ta'lim sohasida keyingi vazifalarni belgilab olishda muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O'zbekistonda professional ta'lim bosqichida amalga oshirilgan islohotlar va dual ta'lim shakli joriy qilinishi tarixi bir qator manbalar asosida o'rganildi. Birinchi navbatda, rasmiy hujjatlar mavzuni yoritishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va ularning ijrosiga qaratilgan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi buyruqlari o'rganildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining joriy arxiv hujjatlari ham mavzuni o'rganishda eng muhim manbalardan biri bo'ldi. Rasmiy hujjatlar O'zbekiston hukumati tomonidan professional ta'lim sohasida qanday vazifa va topshiriqlar qo'yilgani haqida xulosalar olish imkonini berdi.

Mavzuni o'rganishda davriy matbuot materiallari ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Gazetalarda nashr etilgan mavzuga oid maqolalar rasmiy hujjatlarda aks etgan masalalarning amalga oshirilishi haqida muhim ma'lumotlar berdi. Mavzuni yoritishda "Ma'rifat" gazetasining 2019-, 2020- va 2022-yillardagi ayrim sonlari, shuningdek, "Yangi Farg'ona" gazetasining 2024-yilgi sonidan foydalanildi.

Ilmiy jurnallardagi ayrim maqolalar ham mavzuni o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Chunki bu soha mutaxassislarining dual ta'lim haqida fikrlarini tahlil etish imkonini berdi. Xususan, B.Usmonov (2023) o'z maqolasida dual ta'lim shakli va uning vazifalari haqida keng ma'lumotlar bergan [13; 51-55-b.]. Professional ta'limni rivojlantirish mustaqil izlanuvchisi N.Ergashev (2023) dual ta'lim shakli bilan bog'liq islohotlarni yoritib berishga harakat qilgan [18; 25-28-b.].

O'zbekistonda joriy qilingan yangi professional ta'lim bosqichini xalqaro standartlarga muvofiqligini o'rganishda YUNESKO tomonidan ishlab chiqilgan Ta'limning xalqaro standart klassifikatsiyasi (TXSK-2011) ham tahlil etildi.

Muhokama. O'zbekistonda professional ta'limda dual ta'lim shaklining joriy qilinishi xalqaro standartlar asosida va zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirgan malakali o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash maqsadiga qaratilgan. Bundan tashqari, ushbu ta'lim shakli mehnat bozoridagi real ehtiyojlardan kelib chiqib mutaxassislarni tayyorlashni ham nazarda tutadi. Dual ta'lim shaklini joriy qilishda Germaniya tajribasi tanlanishi esa qo'yilgan maqsadlarga erishishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Endilikda asosiy vazifa ushbu yangi joriy etilgan ta'lim shakllari muvaffaqiyatini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Ushbu islohotlarni amalga oshirish jarayonida qo'lga kiritilayotgan yutuqlar va muammolarni tahlil etish kelgusida bajariladigan ishlarni belgilab olishda muhim rol o'ynaydi. Dual ta'lim shakli uning imkoniyatlaridan to'liq foydalangan holatda samarali bo'ladi. Ushbu ta'lim shaklini yakunlab mehnat bozorida faoliyatini amalga oshirayotgan o'rta bo'g'in kadrlarining ish samaradorligini o'rganish keyingi islohotlarning yo'nalishlarini belgilab berishni ta'minlaydi.

Natijalar. O'zbekistonda ta'lim sohasida o'zining yangi taraqqiyoti davrida amalga oshirilgan islohotlar professional ta'lim sohasini ham qamrab oldi. Chunki kasb-hunar ta'limi yoshlarning kelajakda o'zi tanlagan kasbni egallashida va bu kasbda muvaffaqiyat qozonishida katta rol o'ynaydi. Mustaqillikning dastlabki yillarida, xususan, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da O'zbekistonda AQSH ta'lim tizimida mavjud bo'lgan kasb-hunar kollejlari tizimiga e'tibor qaratildi. O'zbekistonda vujudga kelgan o'rta maxsus ta'lim bosqichi 9-sinfdan keyin 3 yillik kasb-hunarga yo'naltirilgan kollejlari va umumta'lim fanlarini chuqurlashtirib o'qitishga

qaratilgan akademik litseylardan iborat holda faoliyat ko'rsatdi. Ushbu tizimdagi akademik litseylar o'zini oqlagan bo'lsa-da, kollejlarni tashkil etishdan ko'zda tutilgan asosiy maqsadlarga erishilmadi. Kollejlarning bitiruvchilari mehnat bozorida o'z o'rnini topa olmadi hamda umumta'lim fanlari yaxshi o'qitilmagani uchun oliy o'quv yurtlari talabasi bo'lishda ham past ko'rsatkichlar qayd etdi. Bundan tashqari, kollejlarda davomat yaxshi bo'lmagani ham ulardagi ta'lim sifatiga ta'sir etdi. Shu kabi muammolar to'planib qolganini hisobga olgan O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan ota-onalar o'rtasida so'rovnoma o'tkazgan holda 11 yillik umumta'lim tizimiga o'tishga qaror qilindi. Bu bilan kollejlarni butunlay tugatilmadi, aksincha ular jahon tajribasi asosida isloh qilindi. 2017-yil O'zbekistonda umumta'lim sohasida tub islohotlar yili bo'ldi. Chunki o'rta maxsus ta'limdagi islohot umumiy o'rta ta'lim tizimiga ham ta'sir ko'rsatdi. Tez orada joriy qilinayotgan yangi ta'lim tizimining huquqiy asoslari yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2017-yil 15-martda qabul qilingan "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi Nizom"da 11 yillik ta'lim tizimiga o'tilishi munosabati bilan belgilangan o'zgarishlar qayd etildi. Unda umumiy o'rta ta'lim boshlang'ich ta'lim (I — IV sinflar), tayanch o'rta ta'lim (V — IX sinflar) va o'rta ta'lim (X — XI sinflar) bosqichlaridan iborat ekanligi belgilangan [9]. Jahon tajribasida ham shunga o'xshash tizimiga ko'plab misollar topish mumkin. Jumladan, Fransiyada umumiy majburiy o'rta ta'lim 11 yilni (4 yil boshlang'ich + 4 yil o'rta + 3 yil ixtisoslashgan litseylar) tashkil etadi [4; 10-b.]. Yaponiyada ham umumiy o'rta ta'lim 11 yilni tashkil etib, 3 bosqichdan iborat: boshlang'ich (1-6-sinflar), o'rta (7-9-sinflar) va yuqori (10-11-sinflar) [5; 12-b.]. Ushbu misollar 11 yillik ta'lim jahonda o'zini oqlagan tizimlaridan biri ekanini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida 2019/2020-o'quv yilidan boshlab kasb-hunar kollejlariga o'qishga qabul qilish umumta'lim maktablarining 11-sinflari bitiruvchilari hisobidan ixtiyoriylik asosida, tegishli mutaxassislikka (kasbga) ega bo'lish uchun 6 oydan 2 yilgacha bo'lgan o'qitish muddatlarida amalga oshirilishi belgilandi [16; 114-b.]. Bu o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi sohasidagi tub burilishlaridan biri bo'ldi.

O'zbekistonda umumiy o'rta ta'limdagi o'zgarishlar o'rta maxsus ta'limda ham muhim o'zgarishlarga olib keldi. Professional ta'lim tushunchasi kirib kelishi bilan qonun hujjatlariga ham o'zgartirishlar kiritildi. 2020-yil 7-avgustdagi Vazirlar Mahkamasining qarorida professional ta'lim boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus bosqichlarga ajratilgan. Ushbu ta'lim bosqichlari YUNESKO tomonidan ishlab chiqilgan ta'limning xalqaro klassifikatsiyasida mos ravishda 3-, 4- va 5-darajalarga to'g'ri keladi [10]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonida professional ta'lim tizimini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni jalb qilish maqsadlari ko'zda tutildi [2; 2-b.]. Prezident farmonida tabaqalashtirilgan tartibda boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim muassasalarining tashkil etilishi va xalqaro tasniflagichga mos keluvchi ta'lim dasturlarini joriy qilish bilan bog'liq chora-tadbirlari ham aks etgan [17; 63-64-b.]. Ta'limning xalqaro standart klassifikatsiyasi (ISCED-2011) ga ko'ra, O'zbekistondagi kasb-hunar maktablarida amalga

oshiriladigan boshlang'ich professional ta'lim xalqaro klassifikatsiyadagi 3-darajaga, ya'ni umumiy o'rta va kasb-hunar ta'limining so'nggi bosqichiga mos keladi. Xalqaro darajada bu bosqich yuqori umumiy o'rta ta'lim deb ataladi hamda bu bosqichda umumiy o'rta ta'limni yakunlash yoki ishlash imkoniyatini beruvchi kasb-hunar o'rgatiladi. O'zbekistonda umumiy o'rta ta'limning so'nggi bosqichi (10-11-sinflar) umumta'lim maktablarining yuqori sinflari, akademik litseylar yoki kasb-hunar maktablarida amalga oshirish tanlovining mavjudligi xalqaro standartlarni uzluksiz ta'lim tizimiga joriy qilish yo'lidagi muhim qadam bo'ldi. Bundan tashqari, o'rta professional ta'lim beruvchi kollejlarda va o'rta maxsus professional ta'lim beruvchi texnikumlar faoliyatining yo'lga qo'yilishi xalqaro klassifikatsiyadagi 4- va 5-darajalarga muvofiq keladi [1; 38-b.]. Shu tariqa O'zbekistonda professional ta'lim bosqichi xalqaro standartlarga moslashtirildi.

O'zbekistonda zamonaviy professional ta'lim bosqichining vujudga kelishi, o'z navbatida, xalqaro tajriba asosida ta'lim sifatini yaxshilash hamda amaliy va nazariy ta'limni uyg'unlashtirgan kasb-hunar ta'limini yaratishni taqozo etardi. Shu tufayli, professional ta'limda Germaniya tajribasi asosida dual ta'limni joriy qilish borasida islohotlarni amalga oshirishga kirishildi. Dual ta'lim shakli – bu ta'lim olishning bir usuli bo'lib, qoidaga ko'ra, ma'lum bir malakaga ega bo'lish uchun shartnoma asosida korxona, muassasa va tashkilotlardagi o'qitish bilan ta'lim muassasalaridagi o'qitishni birlashtirish, ya'ni ta'limning dual shaklda amalga oshirilishini nazarda tutadi [13; 51-b.]. Dual ta'limning asosiy maqsadi yoshlarga o'z vazifalarini samarali, innovatsion, mustaqil va boshqalar bilan hamkorlikda bajarishlari uchun mo'ljallangan keng qamrovli kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lish imkoniyatini berishdir. Dual ta'limni muvaffaqiyatli yakunlaganlar ichki va tashqi mehnat bozoriga malakali ishchi (mutaxassis) sifatida kirib kelishi ta'minlanadi [18; 26-b.]. "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident farmonida ham dual ta'limni joriy qilish masalalari ko'zda tutilgan edi. Unga ko'ra, o'quv jarayoni avvalgiday faqat sinflarda bo'lmasdan, o'quvchilar haftaning 3 kunida kollejdagi nazariy bilim oladi, 3 kunida korxonaning o'zida, birlashtirilgan usta, master rahbarligida ish o'rnida amaliyot o'taydi [3; 5-b.]. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019-yil 1-noyabrda 1018-sonli buyrug'ida Germaniya tajribasida dual kasbiy ta'lim va malaka oshirish tizimini o'rganish bo'yicha ishchi guruh tuziladigan bo'ldi. Ishchi guruh Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ) bilan dual ta'lim bo'yicha mutaxassislarni jalb qilish va seminar-treninglar tashkil etish kabi masalalarda muzokara o'tkazish kabi vazifalar bilan shug'ullanishi belgilandi [14; 83-b.]. Bu dual ta'limni joriy qilish uchun tayyorgarlik vazifasini o'tagan sa'y-harakatlarni amalga oshirish imkonini berdi. 2021-yil 29-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori asosida professional ta'limda dual ta'lim joriy qilinadigan bo'ldi. Qarorda O'zbekistonda dual ta'lim 2021/2022-o'quv yilidan joriy etilishi belgilandi [11]. Dual ta'limni joriy etish bilan bog'liq amalga oshiriladigan chora-tadbirlar rejasida 2021-yil aprel-may oylarida dual ta'limning mazmun mohiyati va tashkil etish tartibi bo'yicha professional ta'lim muassasalari uchun seminar-treninglar tashkil qilish hamda ommaviy axborot vositalari orqali keng jamoatchilikka yetkazish ko'zda tutildi [15; 15-b.]. Ushbu chora-tadbirlar professional ta'limda xalqaro tajribaning muhim yutuqlaridan biri bo'lgan dual ta'limni joriy qilish imkonini berdi.

Dual ta'limni joriy qilishda O'zbekiston bu borada eng ilg'or mamlakat bo'lgan Germaniya tajribasiga murojaat qilmoqda. Xususan, Farg'ona viloyatida Germaniya xalqaro

hamkorlik jamiyati (GIZ) bilan faol aloqalar yo'lga qo'yilgan bo'lib, dual ta'limga kasb-hunar maktablarining 500 nafar o'quvchisi qamrab olingan [19; 2-b.]. GIZ ekspertlari bilan hamkorlikda tashkil etilgan dual ta'lim dasturlarida o'qitish jarayonini samarali tashkil etishga bag'ishlangan seminar-treninglar ham Germaniya tajribasi asosida ta'limning ushbu shaklini amaliyotga joriy etishda muhim ahamiyat kasb etdi [6; 7-b.]. Dual ta'limning joriy qilinishidan maqsadlardan biri turli sohalar uchun o'z kasbini ham nazariy, ham amaliy jihatdan mukammal egallagan mutaxassislarni tayyorlashdan iborat. Bundan tashqari ta'lim dasturlarining tuzilishida ish beruvchining talablaridan kelib chiqishi mutaxassislarni tayyorlashda to'g'ri yondashuvga erishishni ta'minladi.

O'zbekiston professional ta'lim muassasalarida dual ta'lim shakli bo'yicha qabul kvotalari ko'payib borayotgani ham bu ta'lim shakliga e'tibor kuchayib borayotganini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining ochiq ma'lumotlar bazasida berilgan ma'lumotlarga ko'ra, 2023/2024-o'quv yilida respublika bo'yicha dual ta'lim shakli bo'yicha kasb-hunar maktablariga 4732 ta, kollejlarga 5101 ta (shundan 1174 tasi davlat granti asosida) hamda texnikumlarga 3588 ta (shundan 1694 tasi davlat granti asosida) kvota ajratilgan [7]. Bundan ko'rinib turibdiki, professional ta'lim muassasalarida dual ta'lim shakli bo'yicha ham davlat grantlari ajratilmoqda. Ushbu masala 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-sonli Prezident farmonida ham aks etgan. Unga ko'ra, 2023/2024-o'quv yilidan boshlab davlat grantlari kollej va texnikumlarning dual ta'lim shakli bo'yicha ham ajratiladigan bo'ldi. Bundan tashqari, 2023-yil 1-sentyabrga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida malakali xorijiy ekspertlarni jalb qilgan holda Yevropa kasbiy ta'lim va kasbga o'qitish sifatini ta'minlash tizimi talablariga to'liq javob beradigan 1 tadan namunaviy professional ta'lim muassasalari faoliyati yo'lga qo'yilishi vazifasi ham berildi[8]. Ushbu vazifaning qo'yilishini professional ta'lim muassasalarida xalqaro standartlarga asoslangan ta'lim berishni shakllantirish maqsadlari bilan izohlash mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 7-dekabrdagi 647-sonli qarorida ham dual ta'lim shaklini takomillashtirish bilan bog'liq topshiriqlar ishlab chiqildi. Jumladan, ish beruvchilarning o'rta bo'g'in kadrlariga bo'lgan talablarini qondirish uchun dual ta'lim shakli bo'yicha o'qishga qabul qilishni soddalashtirish va raqamlashtirish chora-tadbirlarini ko'rish vazifasi belgilandi. Bundan tashqari, ta'limning amaliy qismida muhim rol o'ynaydigan tashkilotlardan biriktirilgan ustozlarning pedagogik mahoratini ixtiyoriy ravishda oshirish uchun har yili dual ta'lim shakli bo'yicha bepul qisqa muddatli malaka oshirish kurslarini tashkil etiladigan bo'ldi. Dual ta'lim shakli bo'yicha katta tajribaga ega Germaniya ta'lim dasturlari bilan tanishish borasida ham topshiriqlar berildi. Masalan, dual ta'lim shakli joriy etilgan kasb va mutaxassisliklar bo'yicha tegishli ta'lim dasturlarini takomillashtiriladigan hamda Germaniya tajribasi asosida metodik materiallarni ishlab chiqiladigan bo'ldi[12]. Yuqoridagi misollar O'zbekiston hukumati tomonidan professional ta'lim bosqichida dual ta'lim shaklini takomillashtirish bo'yicha ko'plab islohotlar amalga oshirilayotganidan dalolat beradi.

Xulosa. Dual ta'lim shakli bugungi kunda ko'plab mamlakatlarda tashkilot va korxonalarni o'rta bo'g'in kadrlari bilan ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ta'lim shaklida ta'lim muassasasi va korxonalar o'rtasida kerakli mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha shartnoma tuzilishi real ehtiyoj va talablardan kelib chiqib kadrlarni tayyorlashni ta'minlaydi.

Ushbu ta'lim shaklida tahsil olish zamonaviy malaka va ko'nikmalarga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash bilan bir qatorda mehnat bozori ehtiyojlarni qondirishni ham ta'minlaydi. Shuningdek, dual ta'lim shakli uchun asos qilib Germaniya tajribasi tanlanganligi va bu sohadagi xalqaro hamkorlik professional ta'lim bosqichida sifatli kadrlar tayyorlashga katta hissa qo'shib kelmoqda.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. International Standard Classification of Education (ISCED 2011). – Montreal: UNESCO Institute of Statistics, 2012.
2. Ma'rifat. 2019-yil 7-sentabr.
3. Ma'rifat. 2019-yil 14-sentabr.
4. Ma'rifat. 2019-yil 25-dekabr.
5. Ma'rifat. 2020-yil 1-yanvar.
6. Ma'rifat. 2022-yil 24-avgust.
7. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi rasmiy veb-sayti. https://edu.uz/uz/pages/professional_talim#gsc.tab=0 Murojaat etilgan sana: 24.02.2025
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.02.2023 dagi PF-27-sonli "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi farmoni. <https://lex.uz/docs/-6396146?ONDATE=02.03.2023> Murojaat etilgan sana: 24.02.2025
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 15.03.2017 dagi 140-sonli "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori. <https://lex.uz/docs/-3137130> Murojaat etilgan sana: 20.11.2024
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 07.08.2020 dagi 466-sonli "O'zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/docs/-4945840> Murojaat etilgan sana: 20.11.2024
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 29.03.2021 dagi 163-sonli "Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari haqida"gi qarori. <https://lex.uz/docs/-5346217> Murojaat etilgan sana: 26.02.2025
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 07.12.2023 dagi 647-sonli "Professional ta'lim muassasalariga yil davomida o'quvchilarni dual ta'lim shaklida o'qishga qabul qilish tizimi joriy etilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-6688964> Murojaat etilgan sana: 24.02.2025
13. Усмонов Б. Дуал таълим: назария ва амалиёт уйғунлиги // Ўзбекистонда олий таълим, №3, 2023.
14. Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги жорий архиви (ЎЗР ОТФИВ ЖА). Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг асосий фаолият бўйича буйруқлари. Ноябрь. № 1009-1032. 2019 йил.
15. Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги жорий архиви (ЎЗР ОТФИВ ЖА). Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг асосий фаолият бўйича буйруқлари. Апрель. № 160-203. 2021 йил.
16. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 25.01.2018 даги ПФ-5313-сонли "Умумий ўрта, ўрта махсус ва касб-хунарга таълими тизimini тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами / Собрание законодательства Республики Узбекистон, 4(816)-сон, 2018.

17. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 06.09.2019 даги ПФ-5812-сонли “Профессионал таълим тизимини янада такомиллаштиришга доир чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами / Собрание законодательства Республики Узбекистон, 37(901)-сон, 2019.
18. Эргашев Н. Профессионал таълим тизимининг дуал таълим шаклида кадрлар тайёрлаш борасидаги ислохотлар // Ўзбекистонда профессионал таълим, №3, 2023.
19. Янги Фарғона. 2024 йил 27 апрель.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).